

“SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARINING MA’NOVIY- MAVZUIY TASNIFI

Kamola ABDUVALIYEVA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillar, xususan o‘zbek tilidagi etnonimlar (xalq, urug‘, qabila, millat nomlari) tahlil qilinadi. Maqolada etnonimlarning etimologiyasi, paydo bo‘lishi va ularning ilmiy tasnifi muhokama qilinadi. Etnonimlar qadimiy tarixga ega bo‘lib, o‘zining rivojlanish jarayonida ko‘plab o‘zgarishlarga uchragan. Shuningdek, maqolada xalq orasida tarqalgan turli afsonalar va talqinlar etnonimlarning haqiqiy ma’nosini tushunishga to‘sqinlik qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Biroq bu kabi qarashlarning ham ilmiy ahamiyati borligi va ularning tarixiy manbalarda keltirilganligi alohida qayd etilgan. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari orqali etnonimlarning tarixi, antroponimlarga asoslangan etnonimlar, yashash joyi va kasb-korga asoslangan nomlar o‘rganilgan. Etnonimlar, o‘zlarining turli ijtimoiy, kasbiy va etnik ahvoliga qarab, turli shakllarda paydo bo‘lgan va ular haqida ilmiy tadqiqotlar hali ham davom ettirilmoqda. Maqola etnonimlar tahlili orqali milliy til va madaniyat tarixining qadrini ochib beradi.

Kalit So‘zlar: *Etnonim, Antroponim, Urug‘, Qabila, Totem.*

Spiritual-Thematic Classification of Ethnonyms in the Work “Shajarai Turk”

Abstract: This article analyzes ethnonyms (names of people, tribes, clans, and nations) in Turkic languages, particularly in Uzbek. The article discusses the etymology, origins, and scientific classification of ethnonyms. Ethnonyms have an ancient history and have undergone numerous changes throughout their development. The article also highlights that various myths and interpretations circulating among the people may hinder understanding the true meaning of ethnonyms. However, these views also have scientific value, as they are referenced in historical sources. The history of ethnonyms, ethnonyms based on anthroponyms, names based on place of residence, and names derived from occupation are explored through Abulghazi Bahadur Khan’s “Shajarai Turk”. Ethnonyms have appeared in various forms depending on their social, professional, and ethnic conditions, and scientific research on them continues. Through the analysis of ethnonyms, the article reveals the value of national language and cultural history.

Keywords: *Ethnonym, Anthroponym, Tribe, Clan, Totem.*

Kirish

Har bir el, xalq, urug‘ nomining o‘ziga xos ma’nosi, nomlanish sababi bo‘ladi. Etnonimlarning har biri o‘ziga xos tarixga ega. Ular orqali xalqlarning etnogenezini, turmush tarzi, tili va diniga oid ko‘pgina ma’lumotlarni aniqlash mumkin, shuning uchun ham ularni o‘rganish muhim hisoblanadi. Turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili ham etnonimlarga boy bo‘lib, ularni ilmiy tamoyil va usullar asosida tasniflash, urug‘ va qabila, xalq, elat nomlarining etnogenezisi, paydo bo‘lishi, nomlanishi va turli etimologik jihatlarini o‘rganishga imkon beradi. Etnonimlarning paydo bo‘lishi qadimiy tarixga borib taqaladi. Ular o‘zining uzoq o‘tmishi davomida turli o‘zgarishlarga uchragan. Ba’zilar o‘z ma’nosini saqlab qolgan, ba’zilar esa anglatadigan ma’nodan ancha uzoqlashgan. Bundan tashqari, etnonimlar haqidagi xalq orasidagi turli afsonalar, fikrlar va jozibali talqinlar mavjud bo‘lib, ular ko‘p hollarda tadqiqotchini chalg‘itishi mumkin. Biroq bunday qarashlarni ham to‘liq inkor etib bo‘lmaydi. Xalq orasidagi etnonimlar haqidagi turli talqinlar fan uchun ahamiyatga ega.

“Shajarayi turk” etnonimikasini o‘rganishda hozirgi davr nomshunosligi sohasida erishilgan tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ishda tadqiq qilinayotgan materiallarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘rni bilan tarixiy-qiyosiy, ilmiy-tavsifiy, uslubiy hamda etimologik tahlil usullariga ham murojaat qilindi.

Turkiy etnonimlar haqida salmoqli adabiyotlar va tadqiqot ishlari mavjud. B. Ahmedov ta’kidlashicha, keyingi yillarda 92 bo‘li o‘zbek qavmi nomma-nom sanalgan 4 nafar qo‘lyozma asar borligi aniqlandi. Bulardan ikkitasi “Majmu’ at-tavorix” va “Tuhfat ut-tavori xoniy” asarlari (asarlari sankpeterburglik sharqshunos olimlar – A.T. Tohirjonov va V. A. Romadinning

* Tayanch Doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, kamolaabduvaliyeva6@gmail.com

sa'y-harakatlari bilan aniqlandi). Qolgan ikkitasi "Nasabnomayi o'zbek" (O'zbeklarning nasab kitobi) va Asomiyi navodu du firqa-yi o'zbek" asarlaridir (Ahmedov, 1992: 3-4).

Etnonimlar tarixini o'rganish to'plash borasida taniqli olim H. Doniyorovning xizmatlari katta. U 92 bo'li o'zbek urug'larini nomini tartibga keltiradi va bir risolaga jamlaydi. U ushbu risolani tayyorlashda ikkita qimmatli manbaga tayanadi. Ular "Nasabnoma" va "Qitmir" qo'lyozma asarlaridir (Doniyorov, 1968: 53).

Shuningdek, O'zbek etnonimlarini o'rganish sohasida K. Shaniyazov (1974), B. Ahmedov (1992), A. Asqarov (2007) kabi tarixchi olimlar, X. Doniyorov (1968), S. Qorayev (1979; 2006), E. Begmatov (1966), T. Nafasov (1988), N. Oxunov (1989), A. Turabov (1999), K. Marqayev (2007; 2021), N. Begaliyev (2004) kabi tilshunos olimlar ko'pgina ishlarni amalga oshirganlar.

Maqolada Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlar asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlarning ma'noviy-mavzuviy guruhlanishiga oid masalalar tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot ishi oldiga XVII asr yozma yodgorligi bo'lmish "Shajarayi turk" asaridagi etnonimik materiallarni to'plash, ularning etimologiyasini ochib berish va ma'noviy, mavzuviy guruhlash orqali tahlil qilish maqsadlari qo'yildi. Etnonimlar quyidagicha ma'noviy-mavzuviy guruhlarga bo'lib tadqiq qilindi:

- antroponimlarga asoslangan etnonimlar;
- etnonimning yashash joyi, kasb-kori, ijtimoiy ahvoliga nisbat berib yasalgan etnonimlar;
- rang-tus va son-miqdor tushunchalariga asoslangan etnonimlar;
- nomlanish asosini totemistik tasavvurlar, tamg'a va maxsus belgilar tashkil etgan etnonimlar;
- etnotoponim sifatida uchraydigan etnonimlar.

1. Antroponimlarga Asoslangan Etnonimlar

Turkiy xalqlarning afsonalari, og'zaki va yozma merosi, shajaralari haqida gapiradigan bo'lsak, ularning ko'pchiligida urug', qabila, xalq, elat, millat va ularning shahobchalarining paydo bo'lishi ma'lum bir tarixiy shaxs va u bilan bog'liq tarixiy voqeaga asoslanganligini ko'ramiz. Bu urf-odatlar va etnik guruhlarining dastlabki tarixini tushinishda yordam beradi. Mahmud Koshg'ariy, Rashiddin Ali Yazdiy, Abulg'oz Bahodirxon va boshqa tarixchilar o'z asarlarida turkiy urug'lar va qabilalarning genezisi, ularning nomlarining etimologiyasini tahlil qilganlar.

Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarida ko'plab etnonimlar haqida tafsilotlar keltirilgan. Ushbu asar turkiy xalqlarning kelib chiqishiga doir boy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. "Shajarayi turk"da yer olgan etnonimlar, ko'plab tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog'liq bo'lib, turkiy xalqlarning rivojlanishini, ijtimoiy tuzilishini va qabila tarkibini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, "Shajarayi turk"da ko'rinib berilgan etnonimlardan biri – qo'ng'iroq etnonimi. Asarda bu etnonim quyidagicha ta'riflanadi: "Cho'rliq merganning bir o'g'li bor erdi, Qo'nqirat otli. Barcha Qo'nqirat eli oning nasli turur" (Bahodirxon, 1992: 29). Bu etnonim orqali biz qadimiy turkiy qabilalardan biri bo'lgan qo'ng'iroqlarning tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Arlat etnonimi haqida ham shunday ma'lumotlar mavjud. Asarda Ikilanchi o'g'li Arlat. Oning ma'nisi "onaning sevar o'g'li" temak bo'lur. Arlat bir kishining oti turur. Oni onasi ko'p sevar erdi. Oning uchun Arlat tedilar. Barcha arlat eli oning nasli turur", deya ta'rif berilgan (Bahodirxon, 1992: 40). Bu etnonimning tarixiy manbalarida arlatlar, otasi tomonidan sevib, unga xos bo'lgan nomga ega bo'lgan avlodlar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, qabila nomlari va ularning tarixiy rivojlanishi ko'plab boshqa etnonimlarda ham o'z aksini topgan.

Qiyot, barlas, barin, budat, mo'g'ul, nukuz, salur kabi etnonimlar ham "Shajarayi turk"da uchraydi. Har bir etnonimning o'ziga xos ma'nosi va tarixiy ahamiyati mavjud. Misol uchun, barlas etnonimi asarda "Oning o'g'lining oti Erdamchi barlas. Barcha barlas eli muning nasli tururlar. Aqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlasning ma'nisi "sipahsolor" temak bo'lur" deb ta'riflanadi (Bahodirxon, 1992: 46). Barlaslar Temuriylar sulolasining qudratli tarmog'iga aylanishgan.

Shuningdek, budat etnonimi, uning o'g'illari va nasli haqida so'z boradi. Asarda Budatning o'g'illari haqida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Beshinchi o'g'lining oti Batkulki, barcha budat uruqi oning nasli turur" (Bahodirxon, 1992: 46). Ushbu etnonim orqali budatlar turkiy xalqlarning tarixiy evolyutsiyasidagi o'rni va ta'sirini anglash mumkin.

Mo'g'ul etnonimi esa asarda "Asl lafzi mo'g'ul mungul turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo'g'ul tedilar, mungning ma'nisin barcha tirik bilur "qayg'u" ma'nisina turur, ulning ma'nisi "soda dil", ya'ni "qayg'uli soda" temak bo'lur", deb izohlanadi (Bahodirxon, 1992: 17). Mo'g'ul etnonimi orqali turkiy xalqlarning diniy va ijtimoiy hayotiga ta'sir qilgan kuchli imperiyalarning bir qismi bo'lgan Mo'g'ul imperiyasining tarixi yoritilgan.

Nukuz etnonimi esa qayon avlodiga mansub bo'lib, o'zining o'ziga xos ijtimoiy strukturasiga ega bo'lgan bir qabila nomini bildiradi. Salur, tatar va elchikin kabi boshqa etnonimlar ham tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog'liq holda o'z izlarini qoldirgan.

Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlar faqat tarixiy nuqtayi nazardan muhim bo'lib qolmay, balki bugungi kunda turkiy xalqlarning madaniyati, tilshunosligi, va etnogenezi tushunishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu asar orqali etnonimlar va antroponimlar o'rtasidagi bog'lanish, ular orasidagi tarixiy o'zgarishlar haqida chuqurroq ma'lumot olish mumkin.

Abulg'oz Bahodirxon asarida kishilarning ismlari va laqablari asosida yuzaga kelgan etnonimlar ham tadqiq qilinadi. Masalan, "Kilgit" etnonimi "Uchlanchi o'g'li Kilgit. Kishiningki tilinda kamligi bo'lsa, oni turk xalqi paltak der. Mo'g'ul kilgi der. Bu kishining tilining kamligi bor erdi. Oning uchun Kilgit tedilar. Barcha kilgit eli ul kishining nasli tururlar" deb izohlanadi (Bahodirxon, 1992: 40). Bu etnonim til kamchiligidan kelib chiqqan va til o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan qabilalarni anglatadi. Dug'lom etnonimi esa asarda "Sakizlanchi o'g'lining oti Bo'ljar dug'lat. Mo'g'ul aqsadni dug'lat der. Bir oyoqi aqsad erdi. Barcha dug'lat uruqi oning nasli tururlar" deb izohlanadi (Bahodirxon, 1992: 46). Bu yerda esa kishining bir oyog'idagi nuqsonlar asosida qabila nomi paydo bo'lgan.

Shunday qilib, "Shajarayi turk" asaridagi etnonimlar va antroponimlar turkiy xalqlarning etnogenezi, tarixiy rivojlanishi va madaniy merosini tushunishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ularning o'rganilishi bizga turkiy xalqlar tarixining ko'plab notanish jihatlarini ochib beradi.

2. Etnonimning Yashash Joyi, Kasb-Kori, Ijtimoiy Ahvoliga Nisbat Berib Yasalgan Etnonimlar

"Shajarayi turk" asarida keltirib o'tilgan etnonimlar orasida etnosning ilk makoni, yashash joyiga nisbat berib hosil qilingan bir qator urug' va qabila nomlari uchraydi. Ularning ba'zilarida urug' va qabila nomi yasalgan leksemdan aniq sezilib turadi. Masalan:

O'rmanqit etnonimi: "Bu elning yurtlari qaling yig'ochning ichinda turur. Oning uchun O'rmanqit ot qo'ydilar. Bularning yurtlari qirg'iz viloyatiga yaqin bo'lur. Chingizxong'a boqindilar. Bulardin boshqa taqi bir O'rmanqit otli el bo'lur" (Bahodirxon, 1992: 34). Asardagi ushbu ta'rifdan anglashiladiki, insonlarning yashash joyi ularning urug' nomiga aylangan.

Uyshin etnonimi: "Bularning taqi so'nggi mo'g'ul turur" (Bahodirxon, 1992: 41). Asarda xuddi shu qisqa jumla bilan izohlangan. Uyshun, usun, uysun – qadimgi turkiy qabilalardan biri. 3 ta urug'ga (o'choqli yoki uchoqti, qo'shtamg'ali va erganakli) bo'lingan. Miloddan avvalgi III asrga oid Xitoy manbalarida tilga olingan. Bu vaqtda ular Xitoyning

shimoliy-g'arbida yashashgan. Umumiy soni 63 ming kishi bo'lib, chorvachilik (asosan, yilqichilik) bilan shug'ullangan. O'zaro nizolar natijasida uyshunlarning katta qismi (4 ming uyli uyshunlar) miloddan avvalgi II asr o'rtalarida Yettisuv va Tyanshanga kelib o'rtnashishgan. Turk xoqonligiga birlashgan va u yemirilgach, O'rta Osiyo va Qozog'iston yerlaridagi ilk davlatlar tarkibiga qabila birligi sifatida kirgan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida uyshunlar o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, boshqird, no'g'ay, xalqlarining tarkibida bo'lgan (O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000–2006: 43).

Urug' va qabila nomlarida kasb-kor aks etganligi ham guvohidir. Etnonimlar tarkibida kasb-kor bilan bog'liq jihatlar ko'plab uchraydi. Bu etnonimlar etnosning ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, savdo-sotiq, turli hunarmandchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. "Shajarayi turk" asarini o'rganish jarayonida shunday etnonimlarga ham duch keldik. Misol tariqasida arabachi, tevachi, turqaq, yilqili, qo'yli, o'choqli va boshqalar keltirilishi mumkin.

Arabachi: "Hasan elina o'n olti ming barot qo'yi va ming olti yuz qazon quyi soldilar. Oning o'n iki mingini igdir va chavuldur ko'tardi va to'rt mingini ushaq ellari ko'tardi. Arabachig'a to'rt ming barot qo'yi va to'rt yuz qazon qo'yi soldilar".

Tevachi: "Qari kechitdin, to Abulxon tog'ining kun botishig'acha iki ta'rafinda Ali eli o'lturur erdi. Ondin, to tengizga quyg'an yerigacha tevachi xalki o'lturur erdi... Ani uch el derlar erdi: Xizir elining adaqlisi, Ali eli va tevachi. Munlarning ekinlarindin dahyak oldilar. Tevachi birlan Ali elina mol ham solib oldilar" (Bahodirxon, 1992: 127).

Turqaq: Turkiy qabilalardan birining nomi. Abulg'oz Bahodirxon turqaq so'zining asl ma'nosini "qo'riqchi", "soqchi" deb ko'rsatgan: "So'ngaki ma'lum ermas, qaysi turkdin erkani. Ma'nisi "soqchi" temak bo'lur. Podshohlar o'zlarini saqlatmoq uchun bir necha kishini ta'yin qilur erdi. Onlar kelib eshikda yotqanda navbat birlan o'lturur va navbat birlan uxlarlar erdi. O'lturg'anlari tabl va yo iki yig'ochni qoqarlar erdi. Va dushman kelganda bilgay. Soqchilarning uyg'oq erkanin uxlamay o'lturg'ani uxlag'anig'a oytur erdi: "Maning navbatim bo'ldi. Emdi sen turqaq" – teb. Ul sababdin podshohni saqlag'an kishilarga turqaqlar derlar erdi" (Bahodirxon, 1992: 37).

Yilqili, qo'yli, o'choqli etnonimlari: "Onalari agar qizlarini qarg'asalar, oyturlar erdi: "Yilqili va qo'yli kishiga tushub, et yeb va qimiz ichib, boshingga yamon kunlar to'g'ay" – teb... Ul elning qozoni va tabaqi va oyag'i barchasi kumishdin bo'lur. O'zbakning: "Olali, Yilqili, Oltunli, O'choqli el bo'lur ermish"– tegani bu turur" (Bahodirxon, 1992: 34).

Kishilar qadimdan turli ijtimoiy muhit, siyosiy va iqtisodiy mavqedagi holatlariga qarab guruhlariga ajratilgan. Mana shu tabaqalanish va unga oid tushunchalar, tasavvurlar turli so'zlar yordamida ifodalangan. Ba'zi hollarda urug' va qabilalar, ularni tashkil qilgan yoki urug'ning boshlovchisi bo'lgan shaxsning ijtimoiy holati va mavqeyiga qarab nomlangan. Jumladan, ularning ijtimoiy holati etnoslarning nomlariga ham ko'chgan holatlar uchraydi. Misol:

a) qashshoq, kambag'al, ya'ni past tabaqa vakillari uchun alohida nom sifatida shakllangan etnonimlar mavjud. Misol uchun, "Shajarayi turk" asaridagi xalaj – "qol och" (och qolgan) etnonimi;

b) boy, badavlat, hukmron, yuqori tabaqa vakillarini ifoda etish uchun bir qancha etnonimlardan foydalanilgan. Jumladan, biz tahlil qilayotgan asardagi igdir, boyovut, dug'lat etnonimlari fikrimizga misol bo'la oladi.

Bayovut: "Bu el ko'p uruq bo'lurlar. Ammo yaxshisi va ko'pragi iki uruq bo'lur. Birisina Jadayin bayovut va birisina Makrin bayovut derlar. Jadayin va Makrin tegan oqaturg'an iki ulug' su bo'lur. Ul sularning yaqosinda o'ltururlar erdi" (Bahodirxon, 1992: 42).

Bayovut – Respublikamiz hududida qadimdan yashab kelgan urug'lardan biri. Rashid ad-dinning "Jome ut-tavorix", Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida ham boyovut urug'i tilga olingan. Boyovut "boy", "boyilar" degan ma'noni anglatadi. Qozoqlarning arg'in qabilasi tarkibida ham

bayavut urug'i qayd qilingan. Ba'zi olimlar (masalan, boshqird olimi R.G. Kuzeyev) boyovut bilan bayot aslida bir qabila deb hisoblaydi (Qorayev, 2006: 175).

Dug'lat etnonimi: "Sakizlanchi o'g'lining oti Bo'ljar dug'lat. Mo'g'ul aqsaqni dug'lat der. Bir oyoqi aqsaq erdi. Barcha dug'lat uruqi oning nasli tururlar" (Bahodirxon, 1992: 46).

Xalq, qabila, urug'lar nomining vujudga kelishida etnosning ijtimoiy ahvoli, kasb-kori, yashash tarzi va yashash joyining ta'siri katta bo'lgan. Bugungi kunda etnos nomlarini tadqiq qilish qadimgi xalqlarning ijtimoiy ahvoli haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lish imkonini bermoqda.

3. Rang-Tus va Son-Miqdor Tushunchalariga Asoslangan Etnonimlar

Turli ranglar va ular haqidagi totemik, mifologik, diniy, badiiy, falsafiy tushunchalar o'tmishda turkiy xalqlar hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan. Bu haqda tarixiy manbalarda, etnografik adabiyotlarda ko'plab fikrlar mavjud. Etnonimlar orasida tarkibida ranglar uchraydigan etnonimlar ko'p uchraydi. Shu jumladan, biz tadqiq qilayotgan asarda ham. Misol tariqasida ko'kovun, ko'klanga, sariq, qoranut, qoraxitoy, qizilbosh, qizil oyoq kabi etnonimlar keltirilgan. "Shajarayi turk" asarida keltirilgan ushbu misollarni parchalar bilan keltirib o'tamiz:

Ko'klanga (eli): "Ko'klanga o'n iki ming barot qo'yi va ming iki yuz qazon qo'yi soldilar" (Bahodirxon, 1992: 127).

Sariq eli: "Onlar jonlari birlan qabul qildilar taqi o'n olti ming qo'yni ersari, o'n olti ming qo'yni Xuroson saluri, sakiz ming qo'yni taka va sariq va yovmut bermak bo'ldilar" (Bahodirxon, 1992: 127).

Qoranut: "Tusbudayning iki o'g'li bor erdi. Ulug'iningoti Qaronut. Barcha Qaronut eli oning nasli turur" (Bahodirxon, 1992: 39).

Qizilbosh: "Vazir xalqi qizilboshni qirg'anda bir yetim bir vayron xonada yashurunub yotdi... Ababek sulton qatindin ruxsat olib qaytg'anda o'lturg'an xalq aytdilar: "Munga ne uchun ruxsat berasiz? Bizni oz ko'rib qizilboshga qo'shulmoqg'a boraturur". Sulton aytdi: "Qizilbosh o'n ikki ming kishi turur. Uch yuz ortiq bo'lsun. O'zi kelgan kishiga yomonlik qilmoq nomardlarning ishi turur. Men o'zumni xudoyg'a topshurubman".

Qizil oyoq: "Bir ovulning oldiga keldim. Bir yosh o'g'lon chiqdi. "Ne xalq turur bu o'lturg'an xalq!" – deb so'rdum. "Qiziloyoqmiz!" – dedi".

Kirayt: "Kiraytning ma'nosi qoraburan temak bo'lur. Bir kishining yetti o'g'li bor erdi. Yettisi ham qora. Onlarg'a xalq qiroytlar derlar erdi. Shundan tug'ganlarig'a kiraytlar dedilar. Qadimiy el bo'lur".

Biz to'plagan materiallar orasida sonlarga oid etnonimlar ham uchraydi. Jumladan, uch el, uch o'q, o'n uyg'ur, to'rt uyg'ur, to'qquz uyg'ur, mang'it va boshqalar.

Uch el: "Amu suvining yoqasida ekin ekib o'lturg'an uch urug', turkman bor erdi. Ani uch el derlar erdi: Xizir elining adaqlisi, ali eli va tevachi".

Uch o'q: "Uch o'q kelturgan uch kichik o'g'lini va andin bo'lganlarni bu kundan to dunyo oxirigacha uch o'q tesunlar".

O'n uyg'ur: "O'n soyda o'lturg'anni o'n uyg'ur derlar erdi... O'n uyg'urg'a har kim to'ra bo'lsa, el elitar tedilar".

To'qquz uyg'ur: "O'n uyg'urg'a har kim to'ra bo'lsa, el elitar tedilar, To'qquz uyg'urg'a har kim to'ra bo'lsa, Kulerkin tedilar. Ko'p yillar to'ralarining otlarini shundaq derlar erdi".

Do'rmon: "Mo'g'ul to'rtni do'rman der. Yot el bu yigitlarga do'rmanlar deb ot qo'ydilar".

Nayman: "Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko'p bo'lur erdi" (Bahodirxon, 1992: 36).

Etnograf N.A. Aristov nayman soʻzi Sibirdagi Nayma daryosi nomidan olingan degan edi. Koʻpgina olimlar fikrlariga koʻra naymanlar asli turkiy qabila boʻlib, nayman soʻzining maʼnosi “sakkiz” demakdir: Sakkiz oʻgʻuzlarni moʻgʻullar oʻz tiliga moslab nayman deb ataganlar (Qorayev, 2006: 205).

Qayd qilingan etnonimlarning aksariyatida miqdor tushunchasi son bilan ifodalanib, aniq sezilib turadi. Ammo baʼzi oʻzga tillardan oʻzlashgan leksemalardan yasalgan va hozirda bir soʻz (sodda soʻz) sifatida isteʼmolda uchraydigan soʻzlarda miqdor-son tushunchasi yashirin holda keladi. Misol uchun, mangʻit, nayman, doʻrman kabi etnonimlar.

4. Nomlanish Asosini Totemistik Tasavvurlar, Tamgʻa va Maxsus Belgilar Tashkil Etgan Etnonimlar

Totemizim ilk urugʻchilik davrida yuzaga kelgan dinning ilk koʻrinishi boʻlib, unga koʻra maʼlum urugʻ va qabila aʼzolari biror hayvon, oʻsimlik yoki predmet bilan qandaydir aloqada boʻlib, bu aloqa qarindoshlik deb tushunilgan. Shunga koʻra, bunday hayvon, oʻsimlik yoki narsa muqaddaslashtirilgan va unga sigʻinishgan (Marqayev, 2007: 73). Ularda boʻrilar chaqaloqni oʻlimdan asraydi degan eʼtiqod bolaga Boʻri, Boʻriboy, Boʻriniso kabi ismlarni berishda, chaqaloqni bevaqt oʻlim va balo qazolardan asrash uchun uni tugʻilgach, boʻri terisiga oʻrab olishda, boʻri jagʻidan oʻtkazishda, farzand koʻrmagan ayollarning boʻrining tishini beliga bogʻlab yurishlarida va boshqa shunga oʻxshash marosimlarda ifodalangan (Begmatov, 1966: 16).

Totem deb tan olingan jonli yoki jonsiz obyekt urugʻ yoki qabilaning shunchaki muqaddas eʼtiqodi boʻlmasdan, ular oʻz taqdirini va baxtini shu totem bilan bogʻlab tasavvur qilishgan. Masalan, turklarning qadimiy ajdodlari boʻrilarni muqaddas hayvon deb hisoblashgan va bu boʻri totem hisoblangan.

Turkiy xalqlarda totem sifatida muqaddas hisoblangan hayvonlar, qushlar, oʻsimliklar va narsalar haqida tarixiy manbalarda baʼzi maʼlumotlar saqlanib qolgan. Abulgʻozi Bahodirxonning qayd qilishicha, Oʻgʻizxon davrida shunqor, burgut, ukki, qarchigʻay, turumboy, lochin, humoy, turgʻun, qargʻa kabi qushlar muqaddas totemlar sifatida eʼzozlangan.

Totemizim bilan bogʻliq mana shu kabi tasavvurlar dunyodagi koʻpgina xalqlarda mavjud. Buning natijasida, etnonimlarda ham totemizm qarashlari aks etgan. Biz toʻplagan materiallar orasida totemik eʼtiqod bilan aloqador bir qancha etnonimlar mavjud. “Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning maʼnosini koʻzdan kechirganimizda, totemizm bilan aloqador etnonimlarga duch keldik. Jumladan, uyshin, kerayit, qoʻngʻirot va boshqalar.

Qoʻngʻirot – qadimgi turkiy qabila nomi (Vamberi, 1990: 18). Qoʻngʻirot etnonimining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Baʼzilari uni Qoʻngʻir rangli otga bogʻlashgan, boshqalar esa rang nomi boʻlgan qoʻngʻir leksemasiga daxldor deb hisoblashgan. Ammo baʼzi tadqiqotchilar fikricha, qoʻngʻirot soʻzi qadimiy turkiy soʻz boʻlib, u moʻgʻulcha xun kerey (qora qargʻa) soʻziga aloqadordir, u xun + karea + t > xunkereyt > xunkirat > koʻngirat > qoʻngʻirot evolyusiyasini boshidan kechirgan (Nafasov, 1988: 262). Soʻz tarkibidagi -t qoʻshimchasi koʻplik, jamlikni anglatgan. Demak, qoʻngʻirot aslida qargʻalar demakdir. Qargʻa esa qadimiy turklarda totem hisoblangan. Buni kerayit etnonimining paydo boʻlishi ham isbotlaydi.

Kerayit: Asarda uchraydigan ushbu etnonimni oʻrganish davomida unda totemistik qarashlar mavjudligini aytib oʻtish kerak. Kerayit qadimgi oltoy tillariga mansub soʻz boʻlib, u qora qargʻa maʼnosini anglatadi. Soʻz oxiridagi -t koʻplik, jamlikni bildiradi. Moʻgʻul tilida ham xeree(n) – qargʻa demakdir (Doniyorov, 1968: 53). Kerayit etnonimining “qargʻa” maʼnosini berishi, etnonimda xalqning totemistik qarashlarini aks ettiradi.

Qadimiy turkiy urugʻ va qabilalarning oʻziga xos bir-biridan farqlanuvchi shartli ramziy belgilari boʻlib, ular tamgʻa deb yuritilgan. Tamgʻadan odatda turli urugʻ va qabilalarga mansub chorva va boshqa mollarni farqlash uchun foydalanilgan. Tamgʻa shakli molning soniga

kuydirib bosilgan, qulog‘iga zaruriy shakldagi belgilar kesib solingan. Bu odat chorvadorlar orasida hozirda ham mavjud. Tamg‘a, maxsus belgilar nafaqat mollarni ajratish, balki urug‘ va qabilalarni farqlovchi ramziy belgilarga ham aylangan.

5. Etnotoponim Sifatida Uchraydigan Etnonimlar

Abulg‘ozi Bahordirxonning “Shajarayi turk” asari O‘rta Osiyo va turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi muhim tarixiy manba sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu asar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini, xususan, turkiy qabila va urug‘larning kelib chiqishi, ular o‘rtasidagi munosabatlar va madaniy aloqalarni batafsil tasvirlaydi. Asarda Xitoy, Eron, Hindiston va boshqa mintaqalarda yashagan turkiy qabilalar haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan.

“Shajarayi turk” asari orqali turli turkiy xalqlar, qabila va urug‘larning nomlari hamda ularning geografik joy nomlariga (etnotoponimlar) oid muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Mazkur maqolada, asardagi etnonimlar va ular asosida shakllangan etnotoponimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Ba‘zi urug‘ va qabilalar nomlari bugungi kunda unutilayotgan bo‘lsa-da, ularning ko‘plari hozirgi viloyatlarimiz tarkibida joy nomlari sifatida yashab kelmoqda. “Shajarayi turk” asarida etnonim sifatida o‘rganilayotgan urug‘ va qabilalar nomi bugungi kunda toponimlar yoki etnooykonimlar sifatida uchraydi, o‘zining tarixi va madaniyatini saqlab qolgan. Shunday etnonimlar misolida barlos, do‘rmon, jaloyir, mang‘it, nayman, qang‘li, qiyot, qipchoq kabi urug‘lar mavjud. Ular har bir viloyatda kichik joy nomlari sifatida uchraydi. Ba‘zan bu urug‘ nomlari aholisiga nisbatan qo‘llanilmasa ham, joy nomi sifatida mavjud bo‘lib qoladi. Ushbu etnooykonimlarga -lik qo‘shimchasini qo‘shish orqali ularning aholisi ifodalanadi.

Adaqli – “Adaql” (odoql, adak, adoql shaklida uchraydi) so‘zi qadimgi turkiy tillarda “oyoql” yoki “oxirgi qism” ma‘nosini beradi. “Adaqli” esa “oxiri bo‘lgan” yoki “chegaralangan” degan ma‘noni anglatadi. Amudaryo qirg‘og‘ida odoql joy nomi sifatida mavjud.

Arab – ushbu etnonim Arabiston yarim orolidagi xalqlarning umumiy nomidir. Arab so‘zi semit tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, “cho‘l aholisi” ma‘nosini anglatadi.

Boyovut – Sirdaryo viloyati tarkibidagi tuman va shahar nomi. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho‘l dashtining janubida joylashgan. Relyefi, asosan, tekisliklardan iborat bo‘lib, uning yuzasi allyuvial yotqiziqlar bilan qoplangan. Tuman nomiga aylangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”, Rashiddiddinning “Jome ut-tavorix”, Abulg‘ozi Bahordirxonning “Shajarayi turk” asarlarida boyovut so‘zi boy ma‘nosini berishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Barlos – Samarqand viloyatining Ishtixon, Bulung‘ur tumanlaridagi qishloqlar nomi. Qabila nomi bilan bog‘liql nom. Hozirgi vaqtda barloslarning avlodlari Chiroqchi, Koson, Shahrizabz, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Marhamat, Xo‘jaobod, Nurota, Urgut, G‘allaorol tumanlarida yashaydi .

Nayman: “Nayman elining zikri. Bu qadim el turur. Boshlari va mollari ko‘p bo‘lur erdi”. Bu etnonim mo‘g‘ul tilida “sakkiz” ma‘nosini bildiradi. Naymanlar qadimgi sakkiz urug‘ birlashmasini tashkil etgan. Mo‘g‘ullar 8 o‘g‘iz qabilasini qisqartirib nayman deb atagan. Hozirda Andijon viloyati Andijon tumanida, Buxoro viloyati Vobkent tumanida shu nomdagi qishloqlar mavjud. Bundan tashqari, Naymanbo‘ston (Farg‘ona viloyatining Toshloql tumanidagi qishloql), Naymantepa Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi qishloql), Naymancha (Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi qishloql) kabi joy nomlari qayd qilingan.

Bahrin (baarin) – turklashgan mo‘g‘ul qabilalaridan. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Dashtiqipchoqqa o‘rnashgan. XVII–XIX asrlarda katta bir qismi Toshkent vohasiga, Farg‘ona vodiysiga, bir qismi Zarafshon vohasiga, Qashqadaryoning o‘rta oqimiga o‘tmashgan. Asaka, Ishtixon, Qamashi, Uchko‘prik tumanlarida Bahrin, Qorako‘l tumanida Bahrinbayot qishloqlari

bor. Bahrin – ov qushi, lochinning bir turi. Bu parranda urug‘ning totemi, ya’ni muqaddas jonivori bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Duglat, duvlat, dulat – etnonim. Dastlab mo‘g‘ul qabilasining nomi bo‘lgan. Duglatlar Duklan degan kishidan tarqalgan ekan. Duklan (dugulan) mo‘g‘ul tilida “cho‘loq” degani, duglat esa bu so‘zning ko‘pligi. Ushbu etnonim hozirda Jizzax viloyati Baxmal tumanida etnotoponim sifatida mavjud. Duvlat (qirg‘iz tilida – duulat) – qirg‘izning manak urug‘i kichik qabilasining nomi (bu qabilaning avlodlari u yerda yashaydi). Dulat – qozoqlar orasida katta urug‘ va qabila birlashmasi. Dulat, duvlat, dug‘lat qabilasi boshqirdlar, o‘zbeklar va boshqa turkiy xalqlarning qabilaviy bo‘linmalarida ham uchraydi.

Do‘rman – “Do‘r” so‘zi qadimgi turkiy tilida “to‘rt” degan ma‘noni beradi. Bu nom urug‘larning to‘rt qismli bo‘linishini yoki to‘rt urug‘ning birlashmasini anglatishi mumkin. Hozirda Xorazm viloyati Xonqa tumani, Farg‘ona viloyatining Qo‘shtepa, Bog‘dod tumanlarida qishloqlar nomi bo‘lib, u XVI–XVII asrlarda Dashti Qipchoqdan kelgan o‘zbek qabilalaridan biri ekanligi haqida ma‘lumotlar bor. Do‘rmon, do‘rmoncha (Farg‘ona viloyatining Bog‘dod tumani) tarzida uchraydi.

Jaloyir (Jalair) – o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan turk-mo‘g‘ul qabilasi. O‘zbek jaloyirlar Toshkent, Buxoro vohalarida, Nurota tog‘lari etaklarida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Navoiy, Qorako‘l tumanlarida, Xorazmda yashagan va ikkita katta – qaychili va bolg‘ali hamda boshqa mayda urug‘larga (qarg‘ali, boshqird, qorabdal, qorako‘li, qorachopon, chuvuldoq, jastabon) bo‘lingan. Zomin, Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Xatirchi, Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Zangiota, Qibray, Quva tumanlarida Jaloyir, Rishton tumanida Jaloyirchek qishloqlari bor.

Jo‘yrat – turk va mo‘g‘ul qabilalari tarkibidagi urug‘lardan biri bo‘lib, kelib chiqishi bo‘lgan bu nomda “jo‘y” (kanal, suv oqimi) va “rat” (joy) so‘zlari bo‘lishi mumkin. Bu urug‘ suv bo‘yida yashagan bo‘lishi ehtimoli bor. Jarat, juyrot, juyrat, jurchat kabi shakllarda uchraydi. Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida Juyrat nomli qishloqlar va Urgut shahri shu nomdagi mahalla bor.

O‘yrat (uyrat) – O‘yrat so‘zi o‘g‘uz urug‘lariga tegishli bo‘lib, “o‘ru” (to‘qimoq, bog‘lamoq) ma‘nosini anglatadi. O‘yratlar ko‘chmanchi xalqlar sifatida tanilgan. Bundan tashqari ular Farg‘ona qipchoqlari tarkibida ham uchraydi. Hozirda Yangibozor, Navoiy, Koson, Kogon, Rishton tumanlarida Uyrat qishloqlari bor.

Xulosa

“Shajarayi turk” asaridagi etnonimlarning ma‘noviy-mavzuiy jihatdan tasnifi orqali etnonimlarning leksik-semantik va tarixiy kelib chiqishi chuqur tahlil qilindi. Bu tahlil etnonimlarning xalqning turli tasavvurlari va tushunchalari bilan bog‘liqligini, ularning asosida tarixiy voqealar, diniy va falsafiy qarashlar, geografik va ijtimoiy omillar yotganligini ko‘rsatdi. Etnonimlarning shakllanishi, xalqning ijtimoiy ahvoli, kasb-kori, yashash tarzi va joylashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon etnografik va tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ma‘lumotlar taqdim etadi. Shuningdek, etnonimlar rang, miqdor, son kabi so‘zlar bilan bog‘lanib, tarixiy voqealar va etnoslarning ichki bo‘linishini aks ettiradi. Toponimlarning shakllanishida esa etnonimlarning geografik o‘rni katta ahamiyatga ega, chunki etnoslarning joylashuvi ko‘plab toponimlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Umuman olganda, etnonimlarni ma‘noviy-mavzuiy jihatdan tahlil qilish etnoslarning tarixiy, madaniy va ijtimoiy holatini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

- Ahmedov, B. (1992), *O‘zbek qavmlari. Sirli olam*, Toshkent.
Asqarov, A. (2007), *O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*, Toshkent.
Bahodirxon, Abulg‘oziy (1992), *Shajarayi turk*, Toshkent: Cho‘lpon.
Begaliyev, N. (2004), *O‘zbek etnonimlari tarixidan*. Samarqand.

- Begmatov, E. A. (1966), *Nomlar va odamlar*, Toshkent: Fan.
- Doniyorov, H. (1968), *O'zbek xalqining shajara va shevalari*, Toshkent.
- Marqayev, K. (2007), *O'zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqi*, filol. fan. nomz. diss., Toshkent.
- Marqayev, K. (2021), *O'zbek etnonimlari*, Qarshi: Intellekt.
- Nafasov, T. (1988), *O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati*, Toshkent: O'qituvchi.
- O'zbekiston milliy ensiklopediyasi U harfi (2000–2006), Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
- Oxunov, N. (1989), *Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari*, Toshkent: Fan.
- Qorayev, S. (1979), *Etnonimika*, Toshkent: O'zbekiston.
- Qorayev, S. (2006), *Toponomika*, Toshkent.
- Shaniyazov, K. Sh. (1974), *K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda*, Tashkent: Fan.
- Turabov, Abdurayim (1999), *Samarqand viloyati etnonim va etnoykonimlarining tahlili*, filol. fan. nomz. diss., Toshkent.
- Vamberi, G. (1990), *Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi*, Toshkent: Fan.

